



## TARJIMA VA BADIY MAHORAT

**Hafizova M.A.**

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** badiiy asar, ijod, ijodkor, shakllanish, she'riyat, tarjima, tafakkur.

**Ключевые слова:** художественное произведение, творчество, творец, становление, поэзия, перевод, мышление.

**Key words:** work of art, creativity, creator, formation, poetry, translation, thinking.

**Резюме:**

Maqolada Erkin Vohidov ijodi shakllanishida Yesenin she'riyatining roli va ahamiyati haqida ko'rsatib berilgan.

**Резюме:**

В статье показаны роль и значение поэзии Есенина в становлении творчества Эркина Вахидова.

**Summary:**

The article shows the role and importance of Yesenin's poetry in the formation of Erkin Vahidov's work.

Erkin Vohidovning poetik ijodi o'zining turfa mavzu va yo'nalishlari, rang-barang uslubi bilan adabiyot ixlosmandlari hamda adabiyotshunos olimlar e'tibori va e'tirofini qozonib kelmoqda.

O'zbek tarjima maktabi taraqqiyotida E.Vohidov tarjimonlik faoliyatining o'rni va ahamiyati g'oyat katta. U qisqa vaqt ichida jahon va rus adabiyotining eng yuksak namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilib, Cho'lpon va Abdulla Qodiriy asos solgan o'zbek tarjima maktabini o'zining yuksak badiiy saviyadagi tarjimalari bilan boyitdi.

Har bir ijodkorning badiiy olami o'zgacha tarovatga ega. Xususan, shoir Erkin Vohidov tarjima jarayonida faqat tarjimon – oddiy tarjimon bo'libgina qolmay, bu asarlarni o'zi yozganidek taassurot qoldiradi. Ayni paytda tarjima qilinaotgan asar muallifining poetik tili va uslubini saqlab qolishga intiladi. Originalga xos barcha badiiy tasvir usullarini, birinchi navbatda, asar ruhini saqlashga erishadi. U

tarjima qilgan asarni o‘qigan kitobxon bu asarni Abdulla Oripov yoki Jumaniyoz Jabborov emas, balki Erkin Vohidov tarjima qilgan, deb dadil ayta oladi. Ya’ni u asar muallifining soyasida qolib ketmay, o‘z chehrasini ham ko‘rsatib, o‘zining mayin ovozi eshittirib turadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, E. Vohidov rus she’riyatining namoyandalaridan biri Sergey Yeseninning ijodiga murojaat etganida hali qalami charxlanmagan, endigina adabiyot olamiga tetapoya qilib kirib kelayotgan edi. O‘zi va zamondoshlarining aytishlaricha, u shu vaqtda universitet filologiya fakultetining ikkinchi kursida ta’lim olayotgan edi. Uning shu vaqtda Yesenin ijodiga murojaat qilishi va “Fors taronalari”ni tarjima qilishga jur’at etishi katta jasorat edi. Yosh shoir o‘z oldiga qo‘ygan ijodiy maqsadga erishibgina qolmay, “Fors taronalari”ning mohir tarjimoni sifatida shuhrat ham qozondi. Biz zamondoshlarning xotiralari orqali Yesenin durdonasini hatto paxta dalalarida ham mutolaa qilib, rus shoiri ruhiga kirishga intilganini bilamiz. Ammo u mazkur turkumga kirgan har bir she’rning tarjimasini ustida qattiq mehnat qilgan, qanchadan-qancha qog‘ozlarning tagiga yetgan bo‘lishi – biz uchun qorong‘u. Bizga eng muhimi shuki, uning tarjimasidagi “Fors taronalari”ni asarning rus tilidagi originalini she’riyat tarozi pallalariga qo‘ysak, bu pallalardan birontasining vazminroq ekani sezilmaydi.

Aytish mumkinki, E.Vohidov Yesenin asarini katta mahorat bilan tarjima qilibgina qolmay, uning ijod maktabi “sir”larini ham o‘rgandi. Rus she’riyatining durdonalaridan biri – “Fors taronalari”ni tarjima qilish E.Vohidov ijodining shakllanishida muhim bosqich bo‘ldi.

1937-yildan keyin o‘zbek adabiyoti xazinasining oltin fondini tashkil etgan Fitrat, Cho‘lpon singari “xalq dushmanlari”ning asarlari qatori, “xalq dushmani” bo‘lganlikda ayblangan rus shoiri Yeseninning asarlarini ham o‘qish qat’iy taqiqlangan edi. E.Vohidov “Fors taronalari”ni tarjima qilish jarayonida Yesenin ham, xuddi Cho‘lpon bilan Fitratdek “xalq dushmani” emas, balki katta san’atkor ekaniga amin bo‘ldi. E.Vohidov “Fors taronalari”ning har bir satridan katta she’riyatning nafasini eshitdi va o‘zi ham tarjimada Yesenin yurak urishlari eshilib turishi uchun jon kuydirdi. Natijada u “Fors taronalari”ni o‘zbek tiliga qoyilmaqom qilib tarjima qilgan, balki S.Yeseninni o‘zbek kitobxonlariga tanishtirgan birinchi o‘zbek shoiri sifatida ham shuhrat qozondi.

Yesenin 1921-yil 19-maydan qariyb may oyining so‘nggi kunlariga qadar Toshkentda bo‘lgani, shahar manzaralari va uchrashuvlar “Fors taronalari”ning maydonga kelishida muhim ahamiyatga molik. Lekin Yesenin Shagane bilan uchrashuvi Toshkentda emas, balki Toshkent safarining davomi – Batumida ro‘y bergan. O‘tgan asrning 50-yillariga qadar rus adabiyotshunoslaridan birortasi Shaganening kim ekanligini bilmagan. Ustoz Naim Karimovning aytishicha,



50-yillar rus matbuotida e'lon qilingan maqolalarda Yesenin hatto Chagin familiyasi o'rtog'ini erkalab Shagane deb atagan va "Fors taronalari"dagi Shagane obrazi orqasida biror arman qizi emas, ushbu Chagin janoblari turadi degan gaplar yozilgan. Haqiqiy Shagane esa Bokuda tug'ilgan maktab o'qituvchisi ekan! Ana shu haqiqat ayon bo'lganidan keyin "Fors taronalari"ga boshqacha nazar bilan qaray boshlangan.

"Yoshlikda orttirilgan do'st, – yozgan edi Erkin Vohidov, – umrning ko'rki, qalbning suyanchig'i bo'ladi. Kishi shodligini ham, dardini ham avvalo shu do'sti bilan baham ko'rgisi keladi, har gal uchrashganda bamisoli yoshlikning beg'ubor olamiga qaytgandek bo'ladi. Tasavvurimda Sergey Yesenin she'riyati mening shunday – yoshlik do'stim. Esimda, ikkinchi kurs studenti edim. Paxta terimiga hasharga chiqqan kunlarimiz ishdan so'ng yotoqda, xira chiroq nurida yarim kechagacha yeseninxonlik qilar edik. O'shanda "Eron taronalari"ning bir qancha she'rlari o'zbek tiliga tarjima qilindi"[1.50].

Shoirning bu so'zlaridan ma'lum bo'lishicha, u Yesenin she'rlarini universitetda tahsil olayotgan kezlarda tarjima qila boshlagan. Agar shoir o'sha vaqtdayoq Yesenin she'rlarini katta ilhom va mahorat bilan tarjima qilganini eslasak, uning she'riy iste'dodi shoirga barvaqt shunday barkamol asarlarni yaratish imkonini bergani kundek ravshan bo'ladi.

Yosh shoir qalbida kurtak ochgan iste'dod sekin-asta shunday tansiq mevalarni bera boshlaydi. Shoir Yesenin ijodi bilan tanishish va uning "Fors taronalari" turkumini tarjima qilish jarayonida katta badiiy tajriba orttiradi. Yillar o'tgani sayin shoirning tafakkur ufqi yuksalib va kengayib boradi. Tarjima jarayonida tug'ila boshlagan tajriba shoirning o'z ijodiga ham kuchli ta'sir ko'rsata boshlaydi.

"Biz, – deb yozgan edi shoir, – adabiyotlarning o'zaro ta'siri benihoya kuchaygan davrda yashayapmiz. Bizning davrimizda tarjima ishi faqat oddiy san'atkorlik emas, balki katta vatanparvarlik ishi hamdir. Badiiy tarjimaning yana bir jihati bor. Tarjima ishiga qo'l urgan yozuvchi ma'lum darajada o'z ijodini qurbon qiladi. U boshqa yozuvchi ijod etgan asarga vaqtini, kuchini, iste'dodini bag'ishlaydi. Shu ma'noda tarjima internatsionalizmga xizmat qiluvchi fidoyilik mehnatidir" [2.32]. Ha, shoir rostdan ham fidoyilarcha she'riyatni sevib, betakror tarjimalarni amalga oshirdi. Jumladan, fors adabiyoti klassiklari Hofiz Sheroziy, Bedil, rus adabiyoti klassiklari Pushkin, Blok, Svetlov, Tvardovskiy asarlarini ham tarjima qildi.

E.Vohidovning yozishicha, kunlarning birida shoira Zulfiya yosh shoirning Yesenin she'rlarini tarjima qilganini kimdandir eshitib, uni chaqirtirgan va undan Yesenindan qilgan tarjimalarini o'qib berishni so'ragan. "Ma'qul bo'ldi, – deb eslagan o'sha kunni E.Vohidov – Nashriyotga aytirib, kitob chiqarishga bosh bo'ldi. Bu – mening ikkinchi kitobim edi! Meni, oddiy bir studentni, taniqli

shoiramiz chaqirtirib, yordam qo‘lini uzatganligi bilan juda faxrlanib ketdim. Buning uchun men Zulfiya opadan bir umrga minnatdorman”[2.172].

Yesenin she‘rlarining E.Vohidov e‘tiborini qozongani tasodifiy emas. Bu she‘rlar boshdan-oyoq Sharq she‘riyati buloqlaridan ozuqa olgan, badiiyat unsurlari bilan to‘yingan durdonalardir. Ularning yaratilish tarixi ham g‘aroyib. 20-yillarning boshlarida Turkistonga ko‘chib kelgan qalam ahli orasida V. Volpin va A. Shiryayevch degan kishilar ham bo‘lishgan. Ular Yesenin bilan g‘oyibona tanishganlaridan so‘ng rus shoirida Sharq bilan yaqindan tanishish orzusi borligini eshitib, uni Toshkentga taklif qilishadi. Yesenin uchun Moskvadan Turkistonga qadar bo‘lgan uzoq yo‘lni poyezd derazasidan ko‘rib ketish qiziqarli bo‘lmagani uchun shoirning tanishlaridan biri Butun Rossiya evakuatsiya komissiyasining xodimlaridan biri G.K.Kolobov unga Moskva – Toshkent poyezdining maxsus vagonida ketishni taklif etadi. Poyezd qaysi shaharga borsa, vagon shu shahar vokzalining bir chekkasida “tunar” va sayyohlar tushgan vagon xohlagan paytlarida xohlagan poyezdlariga ulanar ekan. Xullas, vagon ular uchun ham yotoqxona, ham ijodxon, ham suhbatxon bo‘lgan.

1921-yil 16-aprelda Moskvadan yo‘lga chiqqan poyezd 14-mayda Toshkentga yetib keladi. Yesenin Samarqandda bo‘lganidek, Toshkentda ham Yangi va Eski shahar manzaralari bilan tanishadi, she‘riyat muxlislari bilan uchrashib, rus teatrining spektakllarini ko‘radi. Lekin unga Toshkentning Shayxontahuri manzur bo‘ladi. U ko‘proq shu yerga kelib, ko‘k choy ichishni xush ko‘radi. O‘zbek xalqining o‘ziga xos hayoti, bozori, odamlari bilan tanishadi. Toshkentlik boylardan Azimboy, ziyolilardan, aka-uka Norbekovlarning mehmoni bo‘ladi...

Shuni aytish kerakki, Yeseninning “Fors taronalari”ni yozgunicha kechgan va undan keyingi hayotini baxtli, deb bo‘lmaydi. Ichkilikka berilgan shoirning atrofini o‘ragan muhit vijdonli kishilardan iborat emas, aksincha, shu yillardagi rus jamiyatining chiqindilari uning atrofini qurshagan edilar. Shu ma‘noda Yeseninning 1921-yili Turkistonga kelib, bu yerda ijtimoiy va ijodiy ish bilan band bo‘lgan rus va o‘zbek ziyolilari bilan uchrashuvlar, mashhur Sharq bozorlari va bedanalar sayrab turgan choyxonalar uning qalbidagi jarohatlarning bitishiga yordam beradi. U hatto sog‘ayib, yangilana boshlaydi.

Yesenin oradan bir necha yil o‘tgach, Ozarbayjon va Armanistonga boradi va shu yerda “Eron taronalari”ning bosh qahramoni Shagane Nersesovna Talyan bilan uchrashib qoladi. Shagane shu yillarda Batum (Batumi)dagi maktablarning birida adabiyot o‘qituvchisi bo‘lib xizmat qilayotgan edi. Shagane jurnalistlardan biriga bunday degan: “Uchrashganimizning uchinchi kuni u menga bag‘ishlangan she‘rining qo‘lyozma nusxasini berdi. Shoir menga yana bir kitobni ham hadya qildi. Unda: “Shaganexon, azizam, Sizga maftun bo‘ldim man” so‘zlari yozilgan edi”.



Bizning maqsadimiz garchand E.Vohidovning S.Yesenin ijodining gultoji – “Fors taronalari”ni o‘zbek tiliga tarjima qilishi va bu katta ijodiy ishning o‘zbek shoirining shakllanishidagi ahamiyatini ko‘rsatish bo‘lsa-da, dastlab ijodi boshqa o‘zanda ketayotgan Yeseninda Firdavsiy va Umar Xayyomlar vatani Eronga borish orzusining uyg‘onishi va “Fors taronalari”ning yozilish sabablarini o‘rganish taqozo etiladi.

Jurnalist N.K.Verjbiskiy Yeseninning Kavkazdagi hayotiga doir xotiralarida yozishicha, “Kunlarning birida uning qo‘liga akademik Korsh tarjimasidagi “X–XV asrlardagi fors liriklari” degan jild qo‘limga tushib qoldi. Men uni o‘qigani uyga olib ketdim. Keyin u Yeseninning qo‘lida paydo bo‘lib qoldi va u bu kitobdan ajralib qolishni istamasdi. Bu she‘rlardagi nimadir Sergeyni maftun qilgan edi. U uyida yod o‘qib, u yoqdan – bu yoqqa yurardi”[3.2]. Fors shoirlarining rus tiliga tarjima qilingan shu asari bilan tanishgan Yesenin halovatini yo‘qotadi-qo‘yadi. Unda shu ajoyib shoirlar yashagan vatan – Eronni ko‘rish orzusi tug‘iladi. Yesenin 1925-yil 8-aprelda Bokudan G.A.Benislavskayaga yo‘llagan xatida o‘zining Eronga borajagi haqida bunday yozadi: “Men o‘qish-o‘rganish uchun boraman, hatto Sherozga ham borishga tayyorman. O‘ylaymanki, albatta, boraman. Eng yaxshi fors shoirlari o‘sha yerda dunyoga kelishgan”[4.11].

Akademik Korsh tarjimasida nashr etilgan asardan tashqari, Yeseninda Eronga borish istagini uyg‘otgan yana bir sababchi bo‘lgan bu Yeseninning do‘sti P.I.Chaginning akasi V.I.Boldovkin bo‘lib, u SSSRning Tehrondagi vakolatxonasida bir necha yil ishlagani uchun Eron adabiyoti va san‘ati to‘g‘risida yaxshi tasavvurga ega kishi bo‘lgan. Uning fors shoirlari she‘rlaridagi falsafiy va badiiy latofat haqidagi so‘zlari Yeseninning qalbi va shuuridan joy olib, uning yuragiga Eronga va fors shoirlariga bo‘lgan hurmat tuyg‘ularini payvand qilayotgan edi.

Lekin Yesenin qancha borishga intilgan, hatto tarjimayi holiga oid qaydlarida Eronga borganini yozgan bo‘lsa-da, u Eronga hech qachon bormagan. Barcha yeseninshunoslardan kelgan birdan-bir haqiqat shudir!

Ha, chindan ham, Yesenin Eronni – Umar Xayyom tug‘ilgan va ijod qilgan vatanni ko‘rish orzusi bilan yashagan. Ammo ko‘pincha sarxush holatda bo‘lgan rus shoirini inqilobiy tala-to‘plar davridagi Eronga yuborish yoki olib borishning iloji yo‘q edi. Shuning uchun ham Turkiston Yesenin do‘stlarining xohish-irodasi bilan “Eron roli”ni o‘ynashga “majbur bo‘ldi”.

Demak, E.Vohidov Yeseninning Turkiston tarixi, tabiati va madaniyati bilan uchrashuvi, keyin Ozarbayjon va Armanistonga qilgan safarlaridan olgan ilhomining go‘zal mevalarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Shoirning tarjima jarayonida turli-tuman muammolarga duch kelgan bo‘lishi tabiiy. Shulardan biri, lirik turkum qahramonining Shagane deb atalganidir.

Turkumdagi qariyb barcha she'rlarda Sharqqa xos o'zbekona nomlar (La'li, Sa'diy, Shahrizoda kabi) va poetik detallar (choyxona, mezbon, karvon, sarrof, sambitgul kabi) o'zbekona jilva berib turgan bir paytda lirik qahramon muhabbatini qozongan qizning Shagane deb atalgani tarjimonga manzur bo'lmagan. U lirik qahramon muhabbatiga sazovor bo'lgan qiz nomini o'zgartirib, unga o'zbekona ruh bag'ishlab va ko'klarga ko'tarib, "Shahina" deb atashni lozim topgan. Shuning natijasida o'zbek kitobxoni Yeseninning bu asarini Turkiston hayotidan, hatto o'zbek xalqi hayotidan olingan asardek qabul qilgan bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, har bir barkamol asar qaysi tilda yozilgan bo'lishidan qat'iy nazar, ingliz kitobxoni tomonidan ingliz tilida, o'zbek kitobxoni tomonidan o'zbek tilida yozilgan asardek sevib o'qilsa, shu asarga berilgan eng yuksak baho bo'ladi.

Agar E.Vohidovning Yesenindan qilgan tarjimalarini o'qisak, Cho'lponning "Go'zal" she'ri xotiramizga keladi. Cho'lpon garchand go'zalning ismini kitobxondan yashirgan bo'lsa ham, uning Go'zali bizga Yeseninning Shaganesini eslatadi. To'g'rirog'i, biz "Шаганэ ты моя Шаганэ..." she'rini o'qiganimizda Cho'lponning "Go'zal"i, Pushkining "Я помню чудное мгновение..." she'rlari ko'z oldimizga keladi. Bu uchala she'r jahon ishqiy lirikasining shoh namunalari. Ammo Yesenin she'ri Pushkin va Cho'lpon she'rlaridan shu jihati bilan farq qiladiki, Shagane bir emas, balki o'ndan ziyod she'rlarni o'z qamroviga olgan she'riy turkumning bosh qahramonidir.

E.Vohidov shu turkumni o'zbek tiliga yonib, zavq-shavq bilan tarjima qildi. O'zbek tiliga katta mahorat bilan tarjima qilingan bu asar tufayli Yesenin o'zbek xalqining eng sevimli shoirlaridan biriga aylandi. Bunda E.Vohidovning xizmatlari g'oyat kattadir.

Shunday qilib, Yeseninning qisman Turkiston shaharlari bo'ylab qilgan sayohati natijasida "Fors taronalari" she'rlar turkumi yaratildi. Sharqona ruh bilan sug'orilgan va turkumning asosiy badiiy "yuk"ini ko'tarib turgan she'rlardan biri "Shahinam, o mening Shahinam" she'ridir. Erkin Vohidov bu she'rni quyidagicha tarjima qilgan:

*Shahinam, o mening Shahinam,  
Bilsang, shimol vatandir menga.  
Dalalardan so'ylaymi senga,  
Oy nur sepgan boshloqlardan ham.  
Shahinam, o mening Shahinam.[5.156].*

Bizningcha, eng qitmir tanqidchi ham bu tarjimadan birorta nuqsonni, asliyatdagi badiiy fikr o'zbek tiliga noto'g'ri tarjima qilingan yoki birorta poetik obraz tarjimada xiralashib qolgan, deb ayta olmaydi. E. Vohidovning hatto yeseninona biror murakkab ifoda yoki murakkab obrazning o'zbek tiliga tarjima



qilishda qiynalganini mutlaqo sezmaydiz. Hatto sizga E. Vohidov rus shoiri she'rlarini badohatan tarjima qilgandek ham bo'ladi.

Boshqa shahar va mamlakatlarga borgan o'zbek shoirlarining she'rlarida ularning shu manzillarda yashagan go'zal qizlarga bo'lgan muhabbati tasvir etiladi. Yeseninning Shaganega bag'ishlangan she'rlarini o'qiganingizda lirik qahramonning arman qiziga bo'lgan muhabbatidan ko'ra kuchliroq tuyg'uning ifoda etilayotgani sizni hayajonga soladi. Bu tuyg'u shimolda, Ryazan kengliklarida tug'ilgan shoirning ona Vataniga bo'lgan muhabbat tuyg'usidir.

Odatda shoirlar sevgi va muhabbatdek buyuk mavzuga murojaat etib, o'zlarining ma'shuqaga bo'lgan muhabbatlarini izhor qilganlarida yuraklarida boshqa bir ulug' tuyg'u – Vatanga muhabbat tuyg'usi ham javlon urayotganini unutilib qo'yadilar. Bu balki, to'g'ridir. Lekin sersevgi shoirlardan biri hisoblangan Yesenin bu she'rida Sheroz go'zaliga qanchalik mahliyo bo'lmasin, "Sheroz qancha bo'lmasin ko'rkam, Aziz o'lka Ryazandir menga", deyishga jur'at etadi. Shu satrlar jaranglashi bilan she'rga sevgi tuyg'ulari bilan birga Vatanga muhabbat tuyg'usi ham kirib keladi. Ana shu ikki tuyg'u uchrashgan nuqtada shoir o'zi turgan zamindan kamida bir qarich yuqori ko'tarilgandek bo'ladi.

Yeseninning "Fors taronalari" she'riy turkumi shoir ijodining gultoji hisoblanadi. Bu turkumning E.Vohidov e'tiborini qozonishi uning Sharq mavzusida yozilgani va Sharq she'riyati motivlarining bu turkumda yorqin badiiy mujassamlanganidir. E.Vohidov ushbu she'rlar turkumini o'zbek tiliga tarjima etar ekan, undagi barcha sharqona poetik intonatsiya va obrazlarni aynan saqlagan bo'lsa-da, turkum qahramonining nomi Shagane ismi Sharq qizlarining ismi emasligini e'tiborga olib, uni Shahina ismi bilan almashtirgan. Sharq she'riyatining talabi asosida, lirik qahramonni shu tarzda ulug'lagan. "Fors taronalari" turkumi E.Vohidov tomonidan tarjima qilinishi, bir tomondan, shoir iste'dodining muhim qirrasini – uning tarjimonlik san'atini mukammal egallashiga yordam bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan, muhabbat mavzusidagi lirik she'rlarida "yeseninona" ohang paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

#### Adabiyotlar:

1. Вохидов Э. Шоиру шеъру шуур: Адабий эсселар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – Б. 50.
2. Вохидов Э. Шоиру шеъру шуур: Адабий эсселар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – Б. 32.
3. Вержбицкий. Сергей Есенин билан учрашувлар // Звезда Востока, - Тошкент, 1958. № 2.
4. Есенин. Собрание сочинений в пяти томах. Т. 5. – М.: 1962. – С.11
5. Вохидов Э. Тўла асарлар тўплами. 8-жилд: Таржималар. – Тошкент: Шарқ, 2021. – Б. 156.